



ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Maloxat Esonova Akilovna

Qo`qon davlat universiteti dotsenti

Obiddinova Hayotxon Eralijon qizi

Qo`qon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Maktabgacha ta'lim tizimini oldiga qo'ygan vazifalari, maktabgacha ta'lim tizimida xorij texnologiyalarining ahamiyati hamda maktabgacha ta'lim tizimiga xorij texnologiyalarini qo'llash haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya, xorij texnologiyalari, nazariya hamda amaliyot, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya ta'lim tizimi.

Аннотация: В статье описаны задачи системы дошкольного образования, значение иностранных технологий в системе дошкольного образования, а также применение иностранных технологий в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: Система дошкольного образования, образование, зарубежные технологии, теория и практика, система образования Японии, Германии, Великобритании.

Abstract: The article describes the tasks of the preschool education system, the importance of foreign technologies in the preschool education system, and the application of foreign technologies to the preschool education system.

Key words: Pre-school education system, education, foreign technologies, theory and practice, Japan, Germany, Great Britain education system.

Respublikamizda o'sib borayotgan yosh avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik hamda jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni shuningdek, maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni va bunda ilg'or xorij texnologiyalarini qo'llashni talab qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganligi darajasini hamda ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishlarini baholash asosida amalga oshirilishi kerak. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyida berilganlar nazarda tutiladi:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini, hamda bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang’ich ta’limga tayyorlik darajasini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va uni joriy etish;

-maktabgacha ta’lim tizimining muqobil shakllari uchun yangi o’quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va uni amaliyotda joriy etish;

-“Ilk qadam” davlat o’quv dasturini kengroq talqinda joriy etish;

-tarbiyalanuvchilarning kartochkalar, tarqatma hamda sanoq materiallari mazmuni va dizaynini o’rnatilgan talablarga muvofiq ishlab chiqish;

-rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo’lgan bolalar ta’limining yangi texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta’lim, eng yangi rehabilitatsiya hamda abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va umumiy maktabgacha ta’lim umumiy tizimining integratsiyalashuviga ko’maklashadigan moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta’lim yo’nalishlarini ishlab chiqish va joriy qilish;

-maktabgacha ta’lim tizimida fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish;

- mashg’ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini hamda ularning ketma-ketligini aniqlash uchun o’quv rejalari va ta’lim dasturlarini optimallashtirish;

- yosh avlodni sog’lom turmush tarzini yuritishga o’rgatish, gimnastika va faol o’yinlar bo’yicha mashg’ulotlar o’tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg’ulotlari hamda sportga qiziqish uyg’otishni shakllantirish, jismonan sog’lom va yetuk o’sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya, shuningdek, ta’lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o’qitish asoslarini amaliyotga joriy etish;

-bolaning kelgusida o’zini o’zi muvaffaqiyatini namoyon etishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko’nikmalarini rivojlantirish;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qatnamaydigan bolalar uchun ta’lim xizmatlari turlarini: pullik ta’lim xizmatlari yoki qisqa muddatli guruhlar va boshqalarni kengaytirish.

-maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish sohasida eng ilg’or xalqaro xorij tajribalarini o’rganish, umumlashtirish va ularni amaliyotga joriy etish maqsadida xorijiy mamlakatlarga o’quv safarlarini tashkil etish;

-xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko’p darajali uzluksiz ta’lim tizimini tashkil etish;

-ta’lim va amaliyotni integratsiyalashtirgan holda xalqaro ta’lim standartlari, o’quv-metodik reja hamda dasturlar, interaktiv va muammoli-vaziyatli o’qitish usullari va treninglari, ilg’or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tashkil etish va amaliyotda qo’llash;

-xorij mamlakatlarining yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan uzoq muddatli munosabatlarni yanada rivojlantirish va maktabgacha ta’lim sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida O’zbekiston Respublikasida ularning filiallarini ochish;

-tajriba almashish, ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bo’yicha sa’y-harakatlarni birlashtirish uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug’ullanuvchi ta’lim va ilmiy-tadqiqot, shuningdek, xorij mamlakatlarining muassasalari bilan samarali idoralararo hamkorlikni yanada chuqurlashtirish.

Bu vazifalarni amalda oshirish uchun bir nechta xorij davlatlarining Maktabgacha ta’lim tizimini ko‘rib chiqamiz va bu tajribalardan milliy qadriyatlarimizga mos keladiganlarini amaliyotga tatbiq qilishimiz mumkin.

YAPONIYA Maktabgacha ta’lim tizimida bolalar bog’chalari va imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktablar bor. Yaponiya maktabgacha ta’limida bolalarni bog’chalari bolalarni 6yoshgacha bo’lgan davrdac qabul qiladi, lekin hech qanday ta’lim bermaydi. Shu bois ham bolalar bog’chalari rasmiy ta’lim tizimidan tashqarida, shuningdek, barcha ta’lim tashkilotlari kabi Madaniyat va ta’lim vazirligiga emas, balki farovonlik va mehnat vazirligiga bo’ysunadi. Bolalar bog’chalari bolalarni 3yoshdan 6yoshgacha bo’lgan davrda boshlang’ich maktabga tayyorlaydi. Bolalar bog’chalarida bolalarni forma kiyishlari majburuydir. Ba’zi bir bolalar bog’chalari maktablar yoki unversitetlar bilan bog’langan bo’ladi.

Yaponiyada maktabgacha ta’limga kata e’tibor qaratiladi. Chunki psixologlarning aytishicha, 7yoshgacha inson bilimlarni 70%ini, qolgan 30%ini esa qolgan butun umri mobaynida o’zlashtirib borar ekan. Maktabgacha tarbiya, eng avvalo, oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi darajada turadi. Ko’pchilik yapon ayollarining ta’kidlashlaricha, bola tarbiyasi- ular hayotining maqsadlaridan biridir. Yaponiyada tarbiyachilar bolalarni kichik guruhlarga, ya’ni “xan”larga bo’lib o’qitishlari tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu tarzda o’qitish bolalarda jamoa bo’lib ishlashga, qaror qabul qilishga, o’zgalar fikrini xurmat qilishga, guruh a’zolarini barchasini tashabbuskor bo’lishga o’rgatadi.

BUYUK BRITANIYA Maktabgacha ta’lim sohasida ta’lim berish o’rganilayotgan predmet yoki tarbiyachiga emas, balki bolaga qaratiladi. Bu yondashuvning rivojiga Russo, Frebel va Montessori hissa qo’shganlar. Bu olimlar bolaning individualligini rivojlantirish va ularning mustaqilligini himoya qilish zarur, deb hisoblaganlar. Maktabgacha tarbiyaning eng asosiy maqsadlari: har bir bolaning extiyoji, hamda uning manfaatlarini qondirish va bolalar o’rtasidagi farqlarni xurmat qilishdan iborat.

Ingliz Maktabgacha ta’lim sohasidagi deyarli barcha tarbiyachilar bolalarning ham rivojlanishi, ham ruhiy shakllanishi darajasini diagnostikasi uchun mazmunli-rolli o’yinlar, rasm chizish hamda narsalar yasash usulidan foydalanish lozim, deb hisoblaydilar. Amalda ingliz Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amaldagi til va matematika mashg’ulotlaridan tashqari, suv, qum bilan o’yinlar harakatli o’yinlar bilan tadqiqot faoliyatiga juda katta ahamiyat beradilar. Buyuk Britaniya Maktabgacha ta’lim o’quv rejasida 4-5 yoshdagi bolalar rivojlanishining 6yo’nalishidagi aniq ko’nikma va bilimlari belgilandi. Bular: shaxsiyatlik, ijtimoiy-emotsional, kommunikativ, xabardorlik, matematik, jismonan va ijodiy. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko’proq o’ynashlari kerak, ammo adabiyot va matematikani bilish talablari shunchalik yuqoriki, o’yin uchun vaqt qolmaydi. Xususan, savodxonlik borasida 5yoshlik bola quyidagilarni bilishi kerak: so’z boshi va oxiridagi tovushlarni aniqlay olishi, tovush hamda harflarni ajrata bilishi,

alifbodagi barcha harflarni ayta olishi, oddiy soʻzlar hamda gaplarni oʻqiy olishi, oʻz ismini yoza olishi va oxirgisi oddiy soʻzlarni yozishda fonetika bilimlaridan foydalana olish.

Bunday maqsadlar yuqori texnologiyali dasturlar yaratilishiga hamda har bir mashgʻulot uchun pedagog tarbiyachi tomonidan aniq harakatlar ketma-ketligi va ulardan olinadigan natijalar yuqori boʻlishiga sabab boʻladi.

GERMANIYA Maktabgacha taʼlim tizimida ota-onalar bolalarini 4 oyligidanoq yasliga olib borishlari mumkin. Chunki nemislarda buva hamda buvilar nevaralarini qarash majburiyati degan tushuncha yoʻq.

Germaniyada Maktabgacha taʼlim tashkilotlarining rang-barang shakllari hamda xayratlanarli turlari koʻp. Eng qiziqarli Maktabgacha taʼlim tashkilotlari, yaʼni bolalar bogʻchalari quyidagicha boʻladi:

1. Waldkindergarten, yaʼni nemischa, wald-oʻrmon, kindergarten- bolalar bogʻchasi degan maʼnoni bildiradi. Bu turdagi bolalar bogʻchasini yaratish Skandinaviyada boshlangan. Deyarli koʻp hollarda bunday bogʻchalar oʻrmonda joylashgan boʻladi. Bolalar doimo ochiq, toza havoda boʻladilar, hamda daraxtlar va turli xildagi oʻsimliklarni oʻrganadilar, tabiiy materiallardan turli xildagi narsalar yasashni oʻrganadilar. Bu orqali bolalarga tabiatni sevish va uni asrab-avaylash oʻrgatiladi.

2. Bauernhofkindergarten, yaʼni nemischa bauernhof- dehqon hovlisi, kindergarten-boalar bogʻchasi degan maʼnoni bildiradi. Bu turdagi bolalar bogʻchasi dehqon xoʻjaliklarida, fermalar yokida ularga yaqinroq joylarda joylashgan boʻladi. Bolalar oʻz kuchlari yetgunicha fermerlarga uy hayvonlarini boqishda, dala va bogʻlarda sabzavot hamda mevalarni oʻstirishda yordam beradilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolani barkamol, komil shaxs boʻlib yetishi barcha davlatlarning eng asosiy vazifalaridan biridir. Biz Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniyaning maktabgacha taʼlim tizimi bilan tanishib chiqdik. Biz sharqona anʼanalarimizga mos keladigan ilgʻor zamonaviy texnologiyalarni maktabgacha taʼlim sohasida qoʻllashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.-Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2022.
2. Esonova M. A., Maktabgacha pedagogika, Darslik. Toshkent 2022-yil
3. Esonova M. A., Maktabgacha pedagogika, Oʻquv qoʻllanma Toshkent 2022-yil
4. Oʻzbekiston Respublikasi taʼlimni rivojlantirish respublika ilmiy –metodik markazi. Reggio Pedagogika: Kreativlikni rivojlantirishning samarali yoʻli. Toshkent-2025
5. Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining 2025-yil 29-avgustdagi “Maktabgacha taʼlim tashkiloti va pedagoglarning ish hujjatlarini tasdiqlash toʻgʻrisida” 323-sonli buyrugʻi.